

TEMURIY MALIKALARNING HAYOTI VA FAOLIYATIGA TARIXIY NAZAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7824484>

Hakimova Muyassar Rashidovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti

Falsafa va ma'naviyat asoslari

kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya.

Ushbu maqola Temuriy malikalar hayoti, faoliyati, boy va serqirra ijodiy-ilmiy merosi, malikalarning nafaqat oilada farzand tarbiyasi balki, davlat boshqaruvida ham o'zining o'rniga ega bo'lganligini tarixiy manbalr asosida aks ettirishga bag'ishlanadi.

Kalit so'zlar.

To'maris, Saroymulxonim, Gulbadanbegim, Mehrinisobegim, Mumtoz Mahal, Jahonorobegim, Movorounnahr, Xuroson, Hindiston, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Ibn Arabshoh, Mirxond, Xondamir, Humoyunnoma, Akbarnoma.

Tarixga nazar tashlar ekanmiz, sharq ayollari davlat idoralarini boshqarishda, fan, madaniyat, san'at, ma'naviyatni yuksaltirishda salmoqli hissa qo'shganliklarini, ularning dono va zukkoligi, ayollik iffati va salohiyati, mard va jasurligi to'g'risida ko'plab tarixiy ma'lumotlar yetib kelgan. Nafaqat sharq, balki bizga tanish bo'lgan barcha mamlakatlarda ayollar orasidan shavkatli hukmdorlar, oqila maslahatgo'ylar, yetuk donishmandlar, zabardast olimalar, suxandonlar, shoiralar va zukko san'atshunoslar yetishib chiqqan. Chunonchi, massagetlar hukmdori To'maris, qadimiy Palmiraning hukmdori Zinoviya, ispan qirolchasi Izabella, arman malikasi Tamaralar o'z davrining yetuk siyosatdon hukmdorlari bo'lganlar. Temur va Temuriylar davrida bunday oqila, tadbirkor, donishmand ayollarni ko'plab misol keltirish mumkin.¹⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining yangi bosqichida davlat va jamiyatning har bir sohasida tubdan yangilanishlar, rivojlanish bilan bir qatorda milliy davlatchilikni mustahkamlash, yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini barqaror izga solish va rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Jumladan, yangilanayotgan O'zbekistonda tarix fanida ham ajdodlarimiz tarixini

¹⁸⁰ Fayziyev T. Temuriy malikalar.-T. Xalq merosi nashriyoti, 1994. 3-b.

o'rganish, ularga to'g'ri va xolis baho berish, shu asosida milliy qadriyatlarimizni tiklash o'zining yangicha bosqichiga ko'tarildi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bizning havas qilsa arziydigan ulug' tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor"¹⁸¹. O'z davrida buyuk saltanat barpo etgan, o'zbek davlatchiligi va jahon tarixida munosib o'rin egallagan, buyuk sarkarda, ilm-fan homiysi Amir Temurdir. Amir Temur va temuriylar davri tarixi nafaqat o'lkamizning, balki jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida umume'tirof etilgan davr sifatida ko'plab tatqiqotchilar e'tiborini o'ziga jalb qiladi. Amir Temur davlatning idoralarini mustahkamlashda va uni boshqarishda, mamlakatni iqtisodiy, xo'jalik, madaniy jihatdan yuksaltirish, obodonlashtirishda, Temuriy amirzodalarni zamon sohiblari, barkamol kishilar qilib tarbiyalashda saroy malikalarining sardori Saroymulkxonimning xizmatlari cheksiz bo'lgan. U o'zining o'ta zebo husni, maftunkor latofati, sodiqligi, dono va hozirjavobligi bilan boshqa malikalardan ajralib turgan. Shuning uchun ham Saroymulkxonim Amir Temurning samimiy hurmati, sadoqatiga sazovor bo'lgan. Keyinchalik ham Amir Temur davrida zakovatli, dono ayollarga bo'lgan samimiy hurmat, iltifot an'analari Temuriylar hukmronligi davrida saqlanib qolingan. Tarixnafis olima nomi bilan dong taratgan Temuriy malika Gulbadanbegim Movorounnahr, Xuroson, Hindistonning XV asr tarixi, jug'rofiyasi, etnografiyasini o'zida mujassam etgan "Humoyunnoma" asari muallifidir.

Bu asarga murojaat qilar ekanmiz Gulbadanbegim XV asrda Movorounnahr va Xurosonda Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Ibn Arabshoh, Mirxond, Xondamir kabi ulug' olimlar tomonidan rivojlantirilgan tarixnavislikni ma'suliyat bilan davom ettirgan olima ayoldir. Shu o'rinda bunday misollarni ko'p keltirishimiz mumkin.

Jumladan Mehrinisobegim, Mumtoz Mahal, Jahonorobegim kabilarning nomlarini alohida hurmat va samimiyat bilan qayd qilishimiz zarur. Mustaqillik davrida milliy qahramon sifatida Amir Temur va uning bunyodkor ishlari milliy g'oyamiz bilan chambarchas bog'landi. Buyuk davlat arbobi Amir Temur tug'ilgan kunning 660 yilligi munosabati bilan mamlakatimiz jamoatchiligidan tushayotgan ko'plab takliflarni inobatga olib, uning davlatchilikni barpo etishdagi, fan, ta'lim va madaniyat taraqqiyotidagi ulkan hissasini nazarda tutib, YUNESKO Bosh konferensiyasining 1996-yilda Amir Temurning 660 yilligi jahon jamoatchiligi tomonidan keng nishonlanishi to'g'risidagi qaroriga e'tiboran xalqaro va

¹⁸¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasidan // Xalq so'zi 2017-yil 4-avgust).

respublika miqyosida tadbirlar o'tkazilayotganligini hisobga olib, O'zbekiston fuqarolarining, yosh avlodning milliy iftixor va vatanparvarlik tuyg'ularini yanada rivojlantirish maqsadida, 1996-yil "Amir Temur yili" deb e'lon qilindi.¹⁸² Bu Temur va Temuriylar tarixiga qiziqishni kuchaytirib yubordi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar-xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Temuriy malikalar faoliyati tarixiy-ilmiy manbalar asosida yoritib beriladi.

Temur va Temuriylar davrida ayollarning o'zni haqidagi ma'lumotlarni Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Ibn Arabshohning (1389-1450) «Ajoyib ul-maqdur fi axbori Taymur» (Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Hofizi Abro'ning «Zubdat ut-tavorixi Boysung'uriy», Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiyning (1413-1482) «Matlai Sa'dayn va majmai bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqish ikki dengizning qo'shilish joyi»), Fasih Xavofiyning (1375-yilda tug'ilgan) "Mujmal-I Fasihiy"¹⁸³, Zahiriddin Muhammad Boburning (1433-1530) «Boburnoma», G'iyosiddin Muhammad Xondamirning (1475-1535) «Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar» («Inson xabarlarida do'stlarning tarjimai holi»), Gulbadanbegimning (1523-1603) «Humoyunnoma», Abulfazl Allomiyning (1551-1602) «Akbarнома», Boburiylar saltanatining to'rtinchi hukmdori Jahongirshohning (1569-1627) «Jahongirnama» («Jahongir tuzuklari»), Mirzo Alouddin Adoul mulk at-Tavjiyning «Shohjahonnoma», Hakimxon To'raning «Muntahab ut-tavorix», «Tazkirat ul-xavotun» («xotinlar tazkirasi») va «Mashohirun-nisvon» (mashhur xotinlar) kabi tarixiy manbalarda o'z aksini topgan.

O'zbekistan Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng yozilgan asarlar B.Ahmedov, A.Ahmedov, A.Asqarov, A.O'rinboyev, X.Ziyoyev, Azamat Ziyov, H.Bobobekov, T.Fayziev, R.Shamsutdinov, P.Ravshanov, U.U.Uvatov, Sh.Karimov, O.Bo'riyevlarning tarixiy ilmiy-ommabop asarlarini misol qilsa bo'ladi.

Xorijiy tarixchilari tomonidan ham Temuriy malikalar haqida asarlar bitilgan. Bularga Kristofer Marlouning (1564-1593) "Buyuk Temur" dramasi, Eduard Gibbon (1737-1794), avstriyalik Hammer-Purgshtal (1774-1856), nemis Fridrix Shlosser (1176-1861), Maks Myuller (1823-1900) asarlaridir. Shuningdek fransuz tarixchisi Rene Grussening «Sahro saltanati» asaridan misol keltiradigan bo'lsak u «Temuriylarning tarixchilari uning shajarasini Chingizxon safdoshlaridan biriga va

¹⁸² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.12.1995 yildagi PF-1333-son.

¹⁸³ Fayziyev T. Temuriy malikalar.-T. Xalq merosi nashriyoti, 1994. 4-b.

hatto Chingiziylardan biriga olib borib taqashga harakat qiladilar. Aslida esa u hech qanday mo'g'ul emasdi, u turkiy edi»¹⁸⁴ deb ko'rsatadi. Chindan ham u turk amiridir. Turkiston farzandidir, bu isbot talab qilmas haqiqatdir. Buni haqiqat ekanligini his etish uchun quyidagi holatga e'tibor bermoq kerak. Xususan, Amir Temur va uning avlodlari hayotida ayollarning tutgan o'rni masalasi Ryui Gonzales de Klavixoning asarlarida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan. Klavixo Xorazm hukmdorlaridan birining qizi, Oltin O'rda xoni O'zbekxonning nabirasi asl ismi Sevinch beka bo'lgan Xonzodabegim haqida ma'lumot berar ekan, uni avval Amir Temurning to'ng'ich o'g'li Jahongirning xotini bo'lganini, uning vafotidan keyin sohibqironning uchinchi o'g'li Mironshohga uzatilganini bayon etgan. Jumladan Xonzodabegim haqida quyidagilarni tasvirlaydi.

Elchilarni ichkariga boshlab kirdilar, Xonzoda (begim) o'tirgan joyga tashrif buyurganimizdan oldin u elchilarni o'z qarshisidagi soyabon ostidagi supaga chiqib o'tirishga taklif etdi. Xonzodabegim va uning huzuridagi ayollar katta chodir eshigi oldidagi soyabon ostida o'tiradilar. U bugun qarindoshlaridan birining nikoh to'yini o'tkazayotgan edi. Begim ko'rinishda qirq yoshlar chamasidagi to'ladan kelgan, oq yuzli ayol edi¹⁸⁵ deb tariflaydi.

Klavixo Saroymulkxonim haqida quyidagilarni yozadi: "Barcha mehmonlar o'rinlariga o'tirib saranjomlik o'rnatilgandan keyin to'yda podshoh huzurida bo'lishi lozim bo'lgan katta xotini Kan'o (Saroymulkxonim) ko'shk yonidagi saropardalarning biridan chiqib keldi. Xonim mana bunday kiyingan edi: Egnida zar bilan tikilgan etagi yergacha sudralib turgan uzun va keng yengsiz qizil shoyi ko'ylak belidan toraytirilgan, etagiga qarab kengayib boradi. Ko'ylak etagini o'n beshga yaqin ayol ko'tarib borardi.

Xonimning yuziga oftobdan saqlanish uchun shunchalik ko'p miqdordagi oq upa surilgan ediki, chehrasi bamisoli oq qog'ozga o'xshardi. Qishda va yozda safarga chiqqan barcha aslzoda ayollar yuzlariga shunaqa yog'li upa surtadilar. Xonimning yuziga yupqa oq mato tashlangan, boshida faqat jangda kiyiladigan dubulg'aga o'xshash baland, qizil tusdagi bosh kiyimi. Uning bir uchi xonimning yelkasiga tushib turibdi. O'sha qizil dubulg'aga juda ko'p yirik, dona-dona marvaridlar, yoqut firuza, boshqa xilma-xil qimmatbaho toshlar qadalgan. Bosh kiyimining haligi yelkaga tushib turgan qismi zar bilan tikilgan, unga qimmatbaho toshlar va yirik marvaridlar bilan bezatilgan chiroyli oltin bargak qadalgan. Xonimning tim qora sochlari yelkasiga tushib turardi deb takidlab o'tgan.

¹⁸⁴ Amir Temur jahon tarixida. T., 1996, 40-bet.

¹⁸⁵ Ryui Gonzales de Klavixo. Samarqandga-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). -Toshkent: O'zbekiston, 2010. -172 b.

NATIJALAR

Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma”, Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Ibn Arabshohning (1389-1450) «Ajoyib ul-maqdur fi axboriTaymur» (Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari), Hofizi Abro’ninr «Zubdat ut-tavorixi Boysung’uriy», Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiyning (1413-1482) «Matlai Sa’dayn va majmai bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqish ikki dengizning qo’shilish joyi»), Fasih Xavofiyning (1375-yildatug’ilgan) “Mujmali Fasihiy”¹⁸⁶, Zahiriddin Muhammad Boburning (1433-1530) “Boburnoma”, G’iyosiddin Muhammad Xondamirning (1475-1535) «Habibus-siyarfi axbor afro ul-bashar» («Inson xabarlarida do’stlarning tarjimayi holi»), Gulbadan Begimning (1523-1603) «Humoyunnoma», Abulfazl Allomiyning(1551-1602) «Akbarнома», Boburiylar saltanatining to’rtinchi hukmdori Jahongirshohning (1569-1627) «Jahongirnomа» («Jahongir tuzuklari»), Mirzo Alouddin Adoul mulk at-Tavjiyning «Shohjahonnoma», Hakimxon To’raning «Muntahab ut-tavorix», «Tazkiratul-xavotun» («xotinlar tazkirasi») va «Mashohirun-nisvon» (mashhur xotinlar) kabi asarlarda Temur sulolasiga mansub xotin-qizlardan ma’lumotlar keltirilgan.

Jumladan:

Buyuk sohibqiron Amir Temurning(1336-1405) rafiqasi Saroy Mulkxonim (1341-1408, Bibixonim), Hirotda Shohruh Mirzoning (1377-1447) rafiqasi Gavhar Shod Begim (1379-1457) Xalil Sulton Mirzoning (1384-1411) suyukli xotini Shod Mulk Xotun (1387-1411), Sulton Husayn Boyqaroning (1438-1506) xotini Xadicha Begim (1451-1511), Umar Shayx Mirzoning (1456-1404) to’ng’ich qizi-Xonzoda Begim(1477-1544), Zahiriddin Muhammad Boburshohning (1483-1530) qizi Gulbadan Begim (1523-1603), Badaxshon hukmdori Sulaymon Mirzoning xotini Haram Begim (1514-1589), Jahongor Shohning(1569-1627) Suyukli xotini Nurjahon Begim¹⁸⁷ (Mehriniso, 1577-1645), Shoh Jahonning (1592-1666) sevikli xotini Mumtoz Mahal (Arjumand Bonu, 1594-1631), Shohjahonning qizi Jahon Oro Begim (1614-1681), Avrangzeb Olamgirning (1618-1707) qizi- Zebunniso Begim (1639-1702) lardir.

MUHOKAMA

Saroymulkxonim nomi tilga olinganda ko’z o’ngimizda, bir tomondan, buyuk Amir Temurning jufti haloli gavdalansa, ikkinchi tomondan, davlat va jamiyat ishlarida arboblik darajasiga yuksalganda, har qanday erkak siyosatchi havas qilsa arziydigan dono va tadbirkor ayol gavdalanadi¹⁸⁸.

¹⁸⁶Fayziyev T. Temuriy malikalar.-T. Xalq merosi nashriyoti,1994. 7-b.

¹⁸⁸ Azamat Ziyo. O’zbek ayollari tarix sahnasida. Toshkent: Fan, 2002. 18-b.

Tarixning tuhfasini qarangi, Amir Temur va Saroymulkxonim aynan chingiziylar hukmronligida o'zaro kurashlar avjiga chiqqan bir yillarda dunyoga kelgan. Saroymulkxonim chig'atoy ulusiga mansub mo'g'ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo'lib, 1341-yilda tug'ilgan. Qozonxon qatl qilingan chog'da Saroy Mulk Xonim hali besh yoshda edi¹⁸⁹. Hofizi Abro' bergan ma'lumotlarga qaraganda: 1347-yilda Saroymulkxonim o'n yoshga to'lgan edi, shu yilda sohibqiron Amir Temur ko'ragonning muborak yoshi o'ndan o'tgan edi deb yozadi.

Gavharshodbegim Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shohruh Mirzoning suyuqli katta xotini edi. U Chig'atoy zodagonlaridan G'iyosiddin Tarxonning qizi edi. Rivoyat qilishlaricha, G'iyosiddin Tarxonning bobokaloni bir vaqtlar Chingizxon xizmatida bo'lib, bir jang asnosida uni o'limdan saqlab qolgan ekan.

Temuriy malikalardan yana Gavharshodbegim sanaladi. Tug'ilgan sana aniq emas. 1377-1380-yillar oralig'ida dunyoga kelgan deb taxmin qilish mumkin.

Xuroson saltanatini boshqarishda yana bir Temuriy malika Xadichabegimning alohida o'z o'rni bor. Xadichabegim Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning suyuqli xotini edi. U 1451-yilda Hirotida tug'ilib, 1457 yilda Sulton Abusayid Mirzo Hiroti olgach, unga hadya etilgan xos kanizaklardan biri edi. Sulton Abusayid Mirzo Xadichabegimni 1465-yilda o'z nikohiga kiritadi. Sulton Abusayid Mirzodan Oqbegim ismli bir qiz ham bo'lgan.

1469 -yilda Sulton Abusayid Mirzo Iroqda halokatga uchragach, Hirot taxtiga o'tirgan Sulton Husayn Boyqaro marhum Sulton Abusayid Mirzo haramida Xadicha begimni ko'rib, uni sevib qoladi va shar'iy iddasi (uch oy) tugagach, o'z nikohiga kiritadi.

Xadicha begim yosh, go'zal, dimog'dor, yengil tabiatli ayol bo'lib, ayni vaqtda tabiatan ichiqoralik va makr-hiylaga moyil bo'lganligini tarixiy manbalarda ko'rishimiz mumkin. Zahiridin Muhammad Bobur Mirzo (1483-1530) Xadichabegim haqida: «O'zini oqila tutar edi, vale beaql va purgo'y (ko'p gapiruvchi, ezma) xotun edi, rofiziya (shialik mazhabining bir oqimi) ham ekandur», deb yozadi. Hindiston xalqlarining madaniy hayotida bo'lib o'tgan ijobiy o'zgarishlarga ulkan hissa qo'shgan temuriy shahzodalar silsilasida Boburshohning chevarasi, Humoyunshohning nevarasi, Akbarshohning o'g'li bo'lmish Jahongirshoh alohida o'rin tutadi.

Jahongirshoh hayotida malika Nur Jahon alohida o'rin egallaydi. Uning asli ismi Mehriniso bo'lib, otasi Mirzo G'iyosbek Tehronlik Xoja Muhammad

¹⁸⁹ Fayziyev T. Temuriy shajarasi. T., 1995.-54b; Бартольд В.В. Сочинения. Т.2.-М., 1964.-С.47

Sharifning o'g'li edi. Mirzo G'iyosbek taqdir taqozosi bilan xo'jayini savdogar boy Malik Mas'udning karvoni bilan Hindistonga yo'l oladi. Qandahorga kelganlarida, Mirzo G'iyosbekning xotini bir qiz dunyoga keltiradi va unga Mehriniso deb ism qo'ydilar. Hindistonga kegach, Malik Mas'ud Mirzon G'iyosbekni Akbarshoh huzuriga olib kelib, saroy xizmatiga jaoylashtirib qo'ydi.

Nur Jahonning shaxsi odamlarning diqqatini tortmay qolmaydi. U o'tkir zehni, aql-zakovatli, yaxshi savodli hamda voqealarni oldindan his qila oladigan ayol edi. Uning noyob qobiliyatiga tan bergan Jahongirshoh ko'pincha saltanat ishlarini hal qilishni ham unga topshirib qo'yardi.

Amir Temur davlati yaqqol ko'zga tashlanadigan jihatlardan biri yosh shahzodalarga ta'lim-tarbiya berishga katta e'tibor berilganligidir. Temuriylar sulolasidan Ulug'bek Mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur kabi qator tarixiy shaxslar o'z ilmiy merosi bilan nafaqat O'rta Osiyo, balki butun jahon xalqlari sivilizatsiyasi taraqqiyotiga munosib hissa qo'shganlar.

Yuqorida nomlari qayd etilgan Temuriy shahzodalarning kamolga yetishida Amir Temur tomonidan amalga oshirilgan tadbirlar kata ahamiyat kasb etadi. Amir Temur farzandlari va nabiralari tarbiyasini ertangi kun taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri deb tushungan.

Manbalarda ta'kidlashicha, sohibqiron o'z avlodlari tarbiyasini tuqqan onalariga emas, balki o'z haramidagi sohibalarga topshirgan. Sohibqironning bunday yo'l tutishiga sabab, shahzodalarning onalari huzurida erkatoyi bo'lib katta bo'lishlari, ularning o'z ona urug'iga mehr qo'yganliklarining oldini olish edi. Shahzodalar 4-5 yoshdan boshlab savod chiqarganlar. 8-10 yoshidan boshlab, ularga otaliq tayinlangan. Otaliqlar shahzodalar uchun mas'ul bo'lib, ularga davlatni boshqarish sirlari, jang qilish mahorati bo'yicha ta'lim berganlar.

Amir Temur harami bosh bekasi Saroymulxonimning saroydagi nufuzi ancha yuqori bo'lib, uning davlat va jamiyat ishlarida, me'morchilik va obodonchilik sohalaridagi faoliyati tarixiy manbalarda ko'p marotaba tilga olib o'tiladi.

Shuningdek, Saroymulxonim shahzodalar tarbiyasida ma'suliyatli shaxs bo'lgan.

Temuriylar sulolasining eng mashhur vakillaridan Shohruh va Ulug'bek aynan Saroymulxonim tarbiyasida bo'lganlar. Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, 1387-yil Saroymulxonim Amir Temurning o'n yashar o'g'li Shohruh va uch yashar nabirasi Xalil Sulton bilan birga Samarqanddan Shimoliy Ozarbayjonga, ya'ni sohibqironning safardagi qarorgohiga yetib kelgan. Amir

Temur farzandlari va nabiralarning yengil-yelpi emas, balki og'ir hayotni ko'rib chiniqqan holda voyaga yetishini istagan.

Saroymulxonim qurdirgan madrasa XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Samarqanddagi madrasalar orasida ulkan va mahobatlilik jihatidan ajralib turgan. Madrasaga zamonasining yetuk mudarrisleri tayinlanib, ular tolibi ilmlarga diniy va dunyoviy ilmlardan dars berganlar.

Saroymulxonim madrasa tolibi ilmlarining ahvolidan tez-tez xabar olib, ularga homiylik qilib turadi. Rivoyatlarga ko'ra, Saroymulxonim o'z odaticha, qosh qoraygach, o'zining yaqin kanizlari bilan kiyimlarini o'zgartirib, madrasa tomon yo'l oladi.

Tabiatan vatanparvar, bilimdon va zukko malikalar haqida gap ketganda olim malika Gavharshodbegim mamlakat ravnaqi yo'lida tinmay g'amxo'rlik qiladi. Uning dasturida madaniy va ma'rifiy hayot birinchi o'rinda bo'lgan. Shu boisdanmi, farzandlari va barcha nabiralari ilm-fan muxlislari bo'lib, hatto g'azal ham bitganlar. Gavharshodbegim Hirotidagi juda ko'p qurilish ishlariga rahnamolik qildi.

Uning o'zi ham Hirotida ikkita katta madrasa qurdirgan. Gavharshodbegimning kundoshi malika Milkat Og'o (bu malikaning asli nomi Mulk Og'o bo'lib, Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umar Shayx Mirzoning xotini edi.

1394-yilda Umar Shayx Mirzo vafotidan so'ng, Amir Temurning irodasiga bo'ysunib, Shohruh Mirzo nikohiga kirgan) Hirot shaharida bir madrasa, «Dor-ush-shifo» nomli kasalxona, «Dor-ul-xadis» nomli xonaqoh, ikkita hammom va shahardan sakkiz farsax (tosh) chetroqda bitta madrasa, kutubxona va maqbara, shahzoda Aloud Davla Mirzo tomonidan bitta kasalxona qurdirilgan.

Gavharshodbegimning ilm-u ma'rifatga homiylik qilish, bunyodkorlik bilan bog'liq ishlariga ko'pdan-ko'p erkak siyosatchilar havas qilsa arzigulikdir. Uning sa'y-harakati bilan Hirotida masjid, madrasa va qator inshootlar barpo etilgan.¹⁹⁰

Boburning qizi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asari o'rta asrlar Sharqining bebaho, tarixiy-ilmiy yodgorligi hisoblanadi.

1996-yil YUNESKOning maxsus qarori asosida mashhur fransuz olimi Bekke Gromon tomonidan bu asarning fransuz tilida chop etilishi ham yuqoridagi fikrning isbotidir. "Humoyunnoma" XVI asrda Hindistonda Zahiriddin Boburning

¹⁹⁰Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix 2-jild. 693-bet. Kamoluddin Abdurazzoq ibn Jaloluddin is'hoq Samarqandiy "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn". 254-bet. G'iyosiddin Xondamirdir "Habib as-siyar". 4-jild. 68-bet.

nabirasi Hindiston shohi Akbarshoh (1556-1603) davrida Boburning qizi Gulbadanbegim tomonidan yozilgan.¹⁹¹

Gulbadanbegimning yozishicha, Akbarshoh o'z davri tarixini abadiylashtirish maqsadida zamonasining barcha olimlariga, qarindosh-urug'lari va amirlarga murojaat qilib, "Bobur podshoh va Humoyun podshoh davri haqida nimaiki, bilsangiz yozingiz" deb buyurgan.

"Humoyunnoma"ning bizgacha yetib kelgan to'la bo'lmagan yagona nusxasi Angliyadagi Britaniya muzeyi qo'lyozmalar fondida saqlanadi.

Temuriylar davri ilm-fan ayollari orasida Zebuniso begimning alohida o'rni bor. Zebuniso begim Zahiriddin Muhammad Boburning nevarasi Abu Zafar Muhiiddin Muhammad Avrangzeb Olamgirning qizi. Uning onasi Dilrasbonu Shohnavozning qizi. Zebuniso begim 1639-yil fevralda Dehlida tug'ilgan.

Uning otasi Avrangzeb o'ta dindor ammo, qattiqqo'l birovning haqidan hazar qilmaydigan, qon to'kishni oddiy bir zarurat, deb biluvchi toshbag'ir bir kishi edi. Avrangzeb qonida Boburiylar qoni oqqanligi sababli talaygina she'rlarni yoddan o'qir va o'zi ham she'r yozar edi. Mana shunday oilada voyaga yetgan Zebuniso begim o'zgacha bir dunyo edi.

Zebuniso begim o'z zamonasining fozila ayollaridan Hafiza Maryam Bonu qo'lida savod chiqardi. Otasi Zebuniso begimning shoirlik iste'dodini payqab, unga o'z davrining yetuk olimlaridan Mullo Muhammad Ashraf Isfahoniy va Mullo Jevonni muallim qilib tayinlaydi.

XULOSA

Amir Temur va Temuriylar davri mamlakatimiz tarixida uyg'onish davri hisoblanadi. Fan va madaniyat rivojida nafaqat Temuriyzoda shahzodalar balkim malikalar mehnati ham mujassamdir.

Saroymulkxonim sadoqatli yor, ulug' malka, ilm-fan homiysi nomi ostida tarixda muhrlangan temuriy malika. O'rta asr sharoitida ayolning naqadar ulug' va qudratli kuch va aqlga ega ekanligini ko'rsata olgan shaxs. Temuriy malikalar orasida Gavharshodbegimning o'z o'rni bor. Tarixda bu ayolga nisbatan turli xil baho beriladi. Siyosiy vaziyat Gavharshodbegim faoliyatiga juda kuchli ta'sir ko'rsatganini, tarixda buyuk iz qoldirgan Movorounnahr madaniyatini dunyoga tanitgan Mirzo Ulug'bekning volidai muhtaramasi bo'lgan bu ayol timsolida buyuk jasorat va davlat boshqaruvida o'ziga xos qobiliyat mujasamligini ko'rishimiz mumkin. Movorounnahr, Xuroson, Eronni bir markaz ostida birlashtirgan

¹⁹¹Gulbadanbegim. "Humoyunnoma". Toshkent. Ma'naviyat. 1998-yil. S.Azimjonova tarjimasi. 3-4 bet.

Shohruhning salkam qirq yillik faoliyatini Gavharshodbegimsiz tasavvur qilish qiyin.

Xulosa qilganimizda, yana ko'xna tariximizda o'z davrining zukko malikalari ko'p bo'lganligi Amir Temur va Temuriylar davlati poydevori mustahkamligi va uning gullab yashnashida temuriy malikalarning xizmati beqiyos bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasidan // Xalq so'zi 2017-yil 4-avgust).
2. Fayziyev T. Temuriy malikalar. Toshkent. Xalq merosi nashriyoti. 1994. 3-bet.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 26.12.1995 yildagi PF-1333-son.
4. Amir Temur jahon tarixida. T., 1996, 40-bet.
5. Ryui Gonzales de Klavixo. Samarqandga-Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406 yillar). -Toshkent: O'zbekiston. 2010. 172 b.
6. Azamat Ziyo. O'zbek ayollari tarix sahnasida. Toshkent: Fan. 2002. 18-bet.
7. Fayziyev T. Temuriy shajarasi.Toshkent.,1995. 54-bet
8. Бартольд В.В. Сочинения. Т.2.-М.,1964.-С.47
9. Hofizi Abru. Zubdat at-tavorix 2-jild. 693-bet. Kamoluddin Abdurazzoq ibn Jaloluddin is'hoq Samarqandiy "Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn". 254-bet.
10. G'iyosiddin Xondamirdir "Habib as-siyar". 4-jild. 68-bet.
11. Gulbadanbegim. "Humoyunnoma". Toshkent. Ma'naviyat. 1998-yil. S.Azimjonova tarjimasini. 3-4 bet.